

## O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA YAPON TAJRIBALARINING AHAMIYATI

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Sultanov Otabek Sahobiddin o'g'li**

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Kalandarova Fazilat Tohirovna**

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lif muassasasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi ta'lif tizida o'qituvchining kommunikativ kompetentligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar xaqida. Bu jarayonda yapon tajribalarining ahamiyati va samarali natijalari xaqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ kompetentlik, xorijiy tajribalar, milliy ta'lif tizimi, maktabgacha ta'lif va boshlang'ich ta'lif.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются подходы, направленные на повышение коммуникативной компетентности учителя в современной системе образования. В ходе этого процесса он говорит о важности и эффективных результатах японского опыта.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетентность, зарубежный опыт, национальная система образования, дошкольное образование и начальное образование.

**Abstract:** This article is about approaches aimed at improving the communicative competence of the teacher in today's education system. In this process, he talks about the importance and effective results of Japanese experiences.

**Key words:** Communicative competence, foreign experiences, national education system, preschool education and primary education.

### KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimizning ta'lif tizimida keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Bulardan ko'zda tutilgan maqsad ta'lif tizimini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakli va metodini kompleks yangilash hamda yanada takomillashtirish eng asosiysi mukammal o'qituvchi shaxsini yaratishdan iborat. Bu vazifalarni muvafakkiyatlari hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el ta'lif tizimi va pedagogikasi tajribalarimi o'rganishni talab etadi. Bu tajribalarni o'rganish orqali ta'lif-tarbiya tizimini yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz.

Bugungi real hayotning turli sohalarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi olimlar oldida xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishning qanday eng maqbul shakl va usullarini topish, qo'lga kiritilgan natijalardan milliy ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni qay tarzda ta'minlash, xalqaro tadqiqotlar ishtirokchilarining nuqtai nazarlari va qarashlarini uyg'unlashtirishga qanday qilib erishish kabi qator savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Bu borada o'qituvchiga alohida xorijiy tajribalarni o'zlashtirib, kommunikativ kompetentligini oshirish, amaliyot davomida kerakli mahorat va qobilyatlarini namoyon qilish va o'rinali foydalanish bugungi kunning asosiy talab va taqazo etayotgan masalalaridandir.

Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rinn tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiyada 600 mingdan ortiq ilmiy xodimlar bo'lib, taxminan 270 mingga yaqin patent olingan. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha Yaponiya hozir dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Yaponiyadagi ilmiy tadqiqot faoliyatining o'ziga xos tomoni shundaki, unga ketadigan harajat yalpi milliy maxsulotning 3% tashkil etadi, bu esa rivojlangan mamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatgich demakdir. Bundan ko'rindaniki, yapon ta'lim tizimida o'rganilishi va o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan jihatlari o'qituvchi faoliyati davomida qo'llashi va foydalmishi ijobjiy natija beradi.

Maktabgacha ta'lim sohasida bolalarga bo'lgan munosabat va ular bilan o'rnatilgan do'stona aloqalar, tarbiyachi faoliyatida yapon tajribalaridan unumli foydalanishga turtki bo'ladi. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha shoh bilan gaplashgandek muomala qilishadi, 5 yoshdan 15 yoshgacha qul bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishadi. 15 yoshli o'smir - o'zining majburiyatlarini yaxshi biladigan, va qoidalarga bo'ysinadigan yoshdagagi katta odam deb hisoblanadi. Yapon oilasida ajohralishlar juda kam. An'anaviy yapon oilasi bu ota-onasiga va 2ta farzanddan iborat bo'ladi. Erkak oilada yuqori mavqega ega. Otaning fazifasi - boquvchi, onaning fazifasi bola tarbiyasidir. Oila va uy bolalikdan psixologik qulay joy sifatida qabul qilinadi, ona esa uning ramzi hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, bola tarbiyasi bilan asosan ona shug'ullanadi. Ota ham tarbiyada ishtirok etishi mumkin, lekin bu kam uchraydigan holat. Bola tug'ilganidan lyiligacha ona tanasining 1 qismi sifatida yelkasida bog'lab olib yuradi, kechasi yonida olib yotadi. Bola hech narsa taqiqlanmaydi, u kattalardan faqat "xavfli",

“iflos”, “yomon” degan so‘zлами eshitadi. Boladagi “hamma narsa mumkin” degan davr 5 yoshgacha davom etadi. Agar bola bilan biror kor-hol bo‘lsa, ona o‘zini aybdor sanaydi va undan ehtiyyot qilolmagani uchun uzr so‘raydi. Yaponlarning bu jihatlari bolalarning bolalik davrlaridanoq, insonparvarlik tamoyillari asosida tarbiyalanishi va chin inson bo‘lib shakllanishiga yo‘naltiradi. Maktabgacha ta’lim sohasida pedagoglarning bolalar bilan xuddi yaponlardek munosabatni shakllantirilishi, ularga nisbatan onalaridek ishonch va samimiy munosabat shakllanishiga asos bo‘ladi.

Boshlang’ich sinflarda bolalarda atrof-olam xaqidagi asosiy qarash va tushunchalar shakllana boshlaydi. Bu davrda o’qituvchi ularga nisbatan ancha e’tiborli va sinchkov bo’lishi kerakligini talab etadi. Yapon maktablarida o‘qitish dasturi o‘zgaruvchan, lekin Ta’lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang’ich ta’limni moliyalashtirish, o‘qituvchilar bilan ta’minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang’ich ta’lim quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o‘z qadriyatlariga hurmat hissini o‘rgatish;
- o‘quvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;
- ona tilidan to‘g‘ri foydalanish;
- iqtisodiy tarbiya berish;
- barkamol shaxsni tarbiyalash.

O‘quv maqsadlariga aniq o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang’ich mакtabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o‘qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadilar. Shuningdek “maxsus faoliyat” fani ham o‘qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. O‘quvchilar o‘zлари o‘quv sinflarini tozalaydilar, o‘quv yilining oxirida katta hashar uyuştiradilar.

O‘z-o‘ziga xizmat ko’rsatish va boshqalar mehnatini qadrlash kabi tushunchalarga o‘rgatishda o‘qituvchilarga albatta yapon tajribalari eng samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogning kommunikativ kompetentligini oshirishda, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi do’stona munosabat, o‘qituvchining o‘quvchilar ishonchini qozonishdagi samimiy munosabatlarning tarkib topishida yapon tajribalri bizning milliy madaniyatimizga to’laqonli mos kelishi bilan ahamiyatlidir. Ta’lim tizimida xorijiy tajribalardan foydalanish, ularni amaliyotga tadbiq etish bugungi kunda yaxshi samara ko’rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.J.MUTALIPOVA, B.X.XODJAYEV QIYOSIY PEDAGOGIKA (DARSLIK) Toshkent-2015
2. Toxirovna, K. F. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA XALQ OG’ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI. Scientific Impulse, 2(13), 51-52.

3. Жураев, Х. О. (2023). В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПРЕДПОЧТЕНИЙ ПСИХОГЕМЕТРИЧЕСКИХ ФОРМ ХАРАКТЕРА ЛИЧНОСТИ С. ТИПОЛОГИЯ ДЕЛЛИНДЖЕРА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 601-
4. Jurayev, X. O. (2023). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviand xulq-atvor shakllanishiga ta'sirining psixologik mexanizmlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(9), 560-569.
5. Odilboyevich, J. X. THE INFLUENCE OF ACCENTUATION OF CHARACTER AND TENDENCY TO PSYCHOPATHY ON THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. *THE ROLE OF DISCIPLINE" INTRODUCTION OF MEDISICAL PLANTS" IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF SPECIALISTS IN THE TECHNOLOGY OF GROWING MEDISICAL PLANTS*, 94.